

“TASDIQLAYMAN”

**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJ
muassisi**

O‘zbekiston Respublikasi Transport vaziri

I.R. Maxkamov

2024-yil “24” dekabre

**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi”
mas’uliyati cheklangan jamiyatining**

2025-yil uchun

B I Z N E S R E J A S I

Davlat nomidan (ishtirokchi,
ta’sischi) funksiyasini bajaruvchi
tashkilot nomi

Pochta manzili, e-xat manzili
(yoki elektron pochta manzili)

STIR

Ijroiya organi rahbari

Bosh buxgalter v.v.b

**O‘zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi**

**100000, Toshkent sh.,
Shayxontoxur tumani,
Zulfiyaxonim ko‘chasi, 3-uy.
e-mail: info@titim.uz**

202 269 195

Iminov Umidjon Muradjanovich

**Xayriyev Mo‘minjon Nuriddin
o‘g‘li**

M U N D A R I J A

I. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat to’g’risida ma’lumot

- 1.1. Markaz rekvizitlari (umumiylar, jamiyat pasporti).
- 1.2. Markaz boshqaruv va ijroiya organi a’zolari.
- 1.3. Kadrlar siyosati, ishchi-xodimlar to’g’risida ma’lumot.
- 1.4. Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJ tomonidan 2024-yilda amalga oshirgan ishlar.

II. Ishlab chiqarish (xizmat ko’rsatish) va Moliyaviy ko’rsatkichlar

- 2.1. Ishlab chiqarish (xizmat ko’rsatish)
- 2.2. Joriy moliyaviy ko’rsatkichlar
- 2.3. Moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlar rejasi
- 2.4. Daromadlar shakllanishining asosiy manbai (narxlar prognozi)
- 2.5. Xarajatlar, tannarx tahlili
- 2.6. Daromadlar va xarajatlar smetasi
- 2.7. Davlat budjetiga to’lovlar
- 2.8. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2024-yil yakuni bilan kutilayotgan moliyaviy ko’rsatkichlari.
- 2.9. Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil uchun moliyaviy rejasi

III. Ish xaqi to’lash tizimi

IV. Korxonani isloh qilish

- 4.1. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJ bo’lim va laboratoriylarining 2025-yilga mo’ljallangan rejalarini:
 - Ilmiy-tadqiqotlar sohasi bo’yicha
 - Soha faoliyatini raqamlashtirish
 - Laboratoriya faoliyatining yangi yo’nalishlarini joriy etish

V. Samaradorlikning muhim ko’rsatkichlari (KPI)

I. "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyat to'g'risida ma'lumot

1.1. Markaz rekvizitlari (umumiy ma'lumotlar, jamiyat pasporti).

Korxona rekvizitlari:

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Faoliyat turi: Transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish.

Tarmoq: Transport

Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100128 Toshkent sh., Shayhontoxur tumani, Zulfiyaxonim ko'cha, 3-uy. Veb.sayt: www.titm.uz

Ustav kapitali: 76 120 927 (yetmish olti million bir yuz yigirma ming to'qqiz yuz yigirma yetti) so'm.

STIR: 202 269 195

Hisob raqami va xizmat ko'rsatuvchi banki: "Ipoteka bank"ning Yunusobod filiali, hisob raqami: 20 208 000 201 949 884 001 MFO: 00837.

Korxona to'g'risida ma'lumot, korxona pasporti

Markaz **1997-yilda** tashkil topgan bo'lib, "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyat - O'zbekiston transport tizimi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarga ega yagona ilmiy markaz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 14-iyundagi PF-94**-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining **2014-yil 6-oktabrdagi 279-son** qarori bilan tasdiqlangan, Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan "O'zavtotrastexnika" ilmiy ishlab chiqarish markazi davlat unitar korxonasi Transport ilmiy-tadqiqot markazi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida **2023-yil 18-iyuldan** faoliyat yurita boshladi.

Respublikada transport sohasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan ilmiy markazni tashkil etishning asosiy sharti O'zbekiston aniq belgilab berilgan, rivojlanishi bilan tasdiqlangan qulay istiqbollari edi. Transport tizimi ishlari jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Transport yo'nalishning ilmiy asosliligi to'g'risidagi keng ko'lamli ma'lumotlarni umumlashtirish va ilmiy tahlil qilish zarurati tug'ildi.

Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, ustavi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida faoliyat yuritadi.

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat yuqori intellektual salohiyat, olim va mutaxassislarning boy ilmiy-amaliy tajribasi, zamonaviy texnik jihozlar va tadqiqot usullarini o’zida mujassam etgan keng ko’lamli ilmiy-tadqiqot ishlariga ega bo’lgan O’zbekistonning transport sohasi bo'yicha yirik ilmiy-tadqiqot markazi. Markaz tuzilmasida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 2-fevral**dagagi **PQ-111**-son “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bilan tashkil etilgan Loyiha ofisi mavjud.

Markaz transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash va ekspertiza ishlarini o’tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshiradi. Ustavda boshqa tijorat xizmatlarini ko’rsatish ham belgilangan.

O’zbekiston Respublikasi transport tizimi va boshqa tashkilotlarning talabiga binoan transport amaliy tadqiqotlar bo'yicha vazifalarni amalga oshiradi. Transport sanoati uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy kadrlar malakasini oshirish, shuningdek, ularning mehnatini rag’batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Transport sohasida xizmat ko’rsatish uchun aniq maqsadlar belgilangan.

Markaz bo’limlarini modernizatsiya, texnik qayta jihozlash va laboratoriya tadqiqotlarini o’tkazish faoliyatini kengaytirish uchun zamonaviy asbob-uskunalar va jihozlangan bilan, korxona xodimlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha ishlarni kuchaytirish rejalashtirilgan.

Korxona nomi	To’liq	Qisqartirilgan
O’zbek tilida	“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat	“TITM” MCHJ
Rus tilida	Общество с ограниченной ответственностью “Научно-исследовательский центр транспорта”	ООО “НИЦТ”
Ingliz tilida	“Transportation center” Limited liability company	“TRC” LLC

Jamiyat o’z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko’rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-hujjatlarni ishlab chiqish;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish;
- tajriba-sinov ishlarini olib borish;
- loyihalash ishlarini olib borish;
- transport vositalarining texnik holati, normativ hujjatlar loyihalari hamda transport sohasida boshqa turdag'i ekspertiza ishlarini o'tkazish;
- transportda standartlashtirish ishlarini olib borish;
- transport vositalari va ularning komponentlarini sertifikatlashtirish ishlarini olib borish;
- transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshirish.

1.2. Markaz boshqaruva ijroiyat organi a'zolari.

Jamiyatning boshqaruva organi sifatida quyidagilar belgilanadi:

- jamiyat muassisi – oliy boshqaruva organi;
- kuzatuv kengashi;
- direktor – Jamiyatning ijro etuvchi organi.

Jamiyatning oliy boshqaruva organi Jamiyat faoliyatining asosiy yo'naliшlarini belgilash, shuningdek, tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyat ustav fondining miqdorini o'zgartirish;

Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Har yili Jamiyatning biznes-rejasini tasdiqlash, uning bajarilishi jarayoni to'g'risida ijro etuvchi organning hisobotini tinglash;

Jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash va boshqarlar.

Jamiyat kuzatuv kengashi Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi hamda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Kuzatuv kengashi a'zolari soni 3 (uch) kishidan iborat bo'ladi.

Jamiyat ijro etuvchi organi Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.

Jamiyat ijro etuvchi organi rahbari (direktor) kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida yagona ishtirokchi tomonidan uch yil muddatga saylanadi hamda uning faoliyatini natijalari qoniqarsiz deb baholangan taqdirda muddatidan oldin lavozimidan ozod etilishi mumkin.

Direktor lavozimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to'g'risidagi qarorni qabul qilgan muassis imzolaydi.

Jamiyat direktori, Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;

Jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llaydi;

Direktor qonunchilik hujjatlari va Jamiyatning ustavi bilan Jamiyat muassisasi va Jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Direktor Jamiyat muassisiga hisobot beradi va uning oldida Jamiyat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

1.3. Kadrlar siyosati, ishchi-xodimlar, to'g'risida ma'lumot.

Markaz muassisining **2024-yil 1-may**dagи **4-son** Qarori bilan tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasi (texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) **44 nafar**dan iborat.

Markazda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida Transportda ilmiy-tadqiqotlar boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari Saidumarov Alisher Ravshanovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun "Yuk avtomobillarining yonilg'i sarfini atrof-muhitning yuqori haroratida aniqlash usulini takomillashtirish" mavzusida dissertatsiya ishini himoya qildi.

Shuningdek, Markazda transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash va ekspertiza ishlarini o'tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlari faoliyat yo'nalishi bo'yicha **Texnika fanlar nomzodi** Erbekov Sherbek Ismoilovich faoliyat yuritmoqda.


Markaz tomonidan **2025-yil** uchun rejorashtirilayotgan xodimlar aqliy salohiyatini yanada oshirish, ularning yangi kompyuter-texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim ko'nikmalarini oshirish maqsadida, manzilli dastur ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

Markaz faoliyatida, **2025-yil** ilmiy ishlab chiqarish sohasida yosh va bilim salohiyati yuqori bo'lgan hamda chet tillarini mukammal o'zlashtirgan ilmiy xodimlar bilan qamrab olish rejorashtirilmoqda.

Markazning laboratoriya faoliyatlarida xodimlarning soha faoliyatidan kelib chiqqan holda yangi zamонавиј asbob-uskunalardan foydalanish

va sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni jalb qilish hamda xorijiy davlatlar bilan bilim va ko'nikmalar almashish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasি ishlab chiqilishi rejalshtirilmoqda.

"Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyatı TUZILMASI



Jamiyat tuzilmasi 2 ta boshqarma, 5 ta bo'lim va 1 ta laboratoriyanadan iborat.

Xodimlarning (texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) soni – 44 nafar.

Markaz ijro organi boshqaruv xodimlarning tasdiqlangan umumiy cheklangan soni doirasida tashkiliy tuzilmaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

1.4. Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MCHJ tomonidan 2024-yilda amalga oshirgan ishlar.

Ilmiy-tadqiqotlar sohasida

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 26-fevral**dagи **"O'zbekiston-2030"** strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi **PF-37**-son Farmoni **7-ilo va 11-band**i ijrosini ta'minlash maqsadida, "Avtomobil transportida-

yo'lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Loyihani ishlab chiqish davomida **2024-yil**ning aprel oyida Urganch va Buxoro shaharlarida aprobatsiya ishlari olib borildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida avtotransportda yo'lovchi tashish xizmatlarining ommabopligi, ishonchliligi va qulayligini aniqlash bo'yicha katta tahliliy ishlar amalga oshirildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat tilini rivojlantirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash masalalari to'g'risida"gi rayosati majlisining bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi hamda "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ o'rtasida **2024-yil 4-aprelda 21-sonli** shartnoma imzolangan.

Shartnomaning umumiy bahosi **471 186 971,18** (to'rt yuz yetmish bir million bir yuz sakson olti ming to'qqiz yuz yetmish bir so'm o'n sakkiz tiyin) so'm.

Shartnomaga ko'ra, "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ tomonidan quyidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy Standart loyihalari ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan:

Nº	Bajariladigan ishlar	Talab etiladigan mablag'
1.	G'ildirakli transport vositalari. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	121 706 502,37
2.	Temir yo'l transporti. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	107 217 647,83
3.	Aviatsiya transporti. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	100 619 638,73
4.	Daryo transporti. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	141 643 182,25
	Jami	471 186 971,18

"G'ildirakli transport vositalari. Atamalar va ta'riflar" O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan **1998-yildan 2023-yilgacha** chiqarilgan transport sohasidagi **209 ta** rasmiy normativ hujjatlar ko'rib chiqildi. Ushbu hujjatlarda ishlatilgan transport sohasiga oid atamalar ajratib olindi va ular asosida tahlil olib borildi. Tahlil natijalariga ko'ra **475 ta** termin shakllantirildi. Rossiya Federatsiyasining normativ hujjatlaridagi **1337 ta** g'ildirakli transport vositalari oid terminlar shakllantirilib o'zbek tiliga tarjima qilindi.

"Daryo transporti. Atamalar va ta'riflar" O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida hamda

halqaro qabul qilingan xujjatlar o'rganib chiqildi. Ushbu hujjatlarda ishlatalilgan daryo transporti sohasiga oid atamalar ajratib olindi va ular asosida O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasi ishlab chiqildi. Standart loyihasi O'zbekiston standartlar institutining web sahifasiga **60 kunlik** jamoatchilik muhokamasiga joylashtirildi.

"Aviatsiya transporti. Atamalar va ta'riflar". O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida hamda halqaro qabul qilingan xujjatlar o'rganib chiqildi. Ushbu hujjatlarda ishlatalilgan aviatsiya sohasiga oid atamalar ajratib olindi va ular asosida tahlil olib borilmoqda.

"Temir yo'l transporti. Atamalar va ta'riflar". O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida hamda halqaro qabul qilingan xujjatlar o'rganib chiqildi. Ushbu hujjatlarda ishlatalilgan temir yo'l transporti sohasiga oid atamalar ajratib olindi va ular asosida tahlil olib borilmoqda.

3. "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 28-fevraldagi PQ-91**-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, texnik reglamentlarini qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish yuzasidan Transport vazirligi hamda "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ o'rtasida **2024-yil 14-avgustda 1-sonli** shartnomaga imzolandi.

Shartnomaga ko'ra, "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ tomonidan quyidagi texnik reglamentlar qayta ko'rib chiqilishi ko'zda tutilgan:

Nº	Bajariladigan ishlar	Talab etiladigan mablag'
1.	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi 237-son qarori bilan tasdiqlangan "Muomalaga chiqarilayotgan g'ildirakli transport vositalarining xavfsizligi to'g'risida"gi umumiy texnik reglament	212 257 679,60
2.	Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 11-noyabrdagi 326-sun qarori bilan tasdiqlangan "Siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizligi to'g'risi"dagi umumiy texnik reglament	106 531 285,00
3.	Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagagi 191-sun qarori bilan tasdiqlangan "Avtotransport vositalari konstruktsiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risida"gi umumiy texnik reglament	155 948 660,46
Jami		474 737 625,06

a) Muomalaga chiqarilayotgan g'ildirakli transport vositalarining xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglamenti Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Qoidalari (BMT Qoidalari) va Yevroosiyo Iqtisodiy ittifoqining umumiyligi texnik reglamenti talablari asosida qayta ko'rib chiqildi. Reglament loyihasi Vazirlik va idoralar bilan kelishish jarayonida.

b) Siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglament BMT Qoidalari va Evroosiyo Iqtisodiy ittifoqining texnik reglamenti talablariga muvofiq takomillashtirildi.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Reglament loyihasi Jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun **2024-yil 5-noyabr** kuni Transport vazirligi saytiga joylashtirildi.

c) Avtotransport vositalari konstruktsiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglamentini davlat tiliga tarjima qilish ishlari olib borilmoqda.

"Avtotransport vositasida **yuk va yo'lovchilarini tashishda** aholi salomatligi va xavfsizlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Bunda,

Raqamlı **nazorat qurilmalaridan** foydalanish tartibi to'g'risida Nizom;

Avtotransport vositasida **yuk va yo'lovchi tashishda** haydovchilarning mehnat va dam olish rejimini nazorat qilish uchun foydalaniladigan **raqamli nazorat qurilmasi kartochkalarini berish** tartibi to'g'risida Nizom;

"Uztrans" yagona interaktiv axborot tizimiga integratsiya qilinadigan manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar ro'yxati;

Avtotransport vositasida **yuk va yo'lovchilarini tashishda** aholi salomatligi va xavfsizlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha **Yo'l xaritasi** ishlab chiqildi.

Avtotransport vositalarining **og'irlik parametrlariga talablar** bo'yicha xalqaro tajribalar o'r ganilib, tahliliy ma'lumotlar tayyorlandi va **43 ta** Yevropa davlatlarida avtotransport vositalarining **og'irlik parametrlariga bo'lган talablari** o'r ganib chiqildi.

2024-yil yakuniga qadar Markaz laboratoriyalari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

2024-yilning o'tgan davrida yoqilg'i sarfi me'yorini aniqlash va avtoshinalaridan foydalanishdagi yo'l bosish me'yorlari ishlab chiqish bo'yicha **75 ta tashkilot bilan o'zaro shartnomalar imzolandi.**

Yoqilg'i sarfi me'yorini aniqlash bo'yicha:

2024-yil uchun **biznez-rejada** ish shartnomalarni **15 foizga** oshirish prognoz qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich **40 foizga** oshirilishiga erishildi (**2025-yilda** shartnomalar soni va tushum miqdorini **2024-yilda** erishilgan ko'rsatkichga nisbatan **15 foizga** oshirish ko'zda tutilgan).

Yo'naliш masofalarini o'lchash bo'yicha:

2024-yilning o'tgan davrida **24 ta** shartnomalar imzolandi, **joriy yil** uchun **biznez-rejada** ish shartnomalar sonini **10 foizga** oshirish prognoz qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich **200 foizga** oshirildi (**2025 yilda** shartnomalar soni va tushum miqdorini **2024 yilda** erishilgan ko'rsatkichga nisbatan **15 foizga** oshirish ko'zda tutilmoqda).

SPS guvohnomasini berish bo'yicha:

2024-yilning o'tgan davrida refrijeratorlarni sinovdan o'tkazish va **24 ta** tashkilotlar bilan o'zaro shartnomalar imzolandi, **2024-yil** uchun **biznez-rejada** ish shartnomalar sonini **30 foizga** oshirish prognoz qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich **100 foizga** bajarildi (**2025-yilda** shartnomalar soni va tushum miqdorini **30 foizga** oshirish ko'zda tutilmoqda).

2024-yil 23 iyul sanasida **Markaz** va **Ruminiya** davlatining "**S.C.Certsign S.A**" kompaniyasi o'rtasida **45/B77E/24123S**-sonli shartnomaga ko'ra **50 000 ta taxograflarda** foydalaniladigan kartochkalar (**chip kartalar**) uchun yangi shartnoma imzolandi.

2024-yilning o'tgan davrida **Raqamli nazorat qurilmalari** kartochkalarini olish bo'yicha **12 916 ta** arizalar qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Xitoy ishlab chiqarilgan **yuk va avtobuslar ko'p miqdorda** xarakatlanayotganligini inobatga olgan holda, **Xitoy taxograf karta SDTF** larni O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish bo'yicha Xitoyning "**Hikvision**" kompaniyasi bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Soha faoliyatini raqamlashtirish yo'naliши bo'yicha:

"**Milliy navigatsiya**" loyihasini dastlabki texnik topshirig'i ishlab chiqildi;

"**TITM operator**" mobil ilovasi ishga tushirildi hamda an'anaviy ariza

qabul qilish jarayoni raqamlashtirildi;

“TITM” mobil ilovasi test rejimida ishga tushgandan so'ng yana-da qulay, tez ishlashi hamda himoyalangan bo'lishi uchun o'zgartirishlar kiritildi va test rejimida markazning rasmiy telegram kanalida hamda rasmiy veb-saytida mijozlarga taqdim etildi;

“CLICK” to'lov tizimi operatori bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomा tuzildi va integratsiya ishlari muvafaqiyatli yakunlandi;

“UZPost” platformasi bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomা tuzildi va integratsiya ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi hamda ishga tushirildi;

“Play Market” platformasida markaz hisobi ochilib, **“TITM” mobil ilovasining “Android”** platformalari uchun ishlab chiqilgan talqini **“Play Market”** platformasiga joylashtirildi, ilovani yuklab olishlar soni **4 300 dan** oshdi, shuningdek foydalanuvchilar talab va takliflari o'rganib chiqildi, foydalanuvchilarga yana-da qulaylik yaratish maqsadida **ilova ma'lumotlar bazasini** yangi talqini ishlab chiqildi.

IV. Korxonani isloh qilish

4.1. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJ bo'lim va laboratoriyalarining 2025-yilga mo'ljallangan rejaları

Ilmiy-tadqiqotlar sohasi bo'yicha:

1. Vazirlar Mahkamasining **2017-yil 25-apreldagi 237-son** qarori bilan tasdiqlangan “Muomalaga chiqarilayotgan g'ildirakli transport vositalarining xavfsizligi to'g'risida”gi umumiylar reglamentni qayta ko'rib chiqish, ushbu reglamentning yangi tahrirdagi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

2. Vazirlar Mahkamasining **2015-yil 11-noyabrdagi 326-son** qarori bilan tasdiqlangan “Siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizligi to'g'risi”dagi umumiylar reglamentni qayta ko'rib chiqish, ushbu reglamentning yangi tahrirdagi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

3. Vazirlar Mahkamasining **2012-yil 4-iyul**dagi **191-son** qarori bilan tasdiqlangan “Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risida” gi umumiylar reglamentni qayta ko'rib chiqish, ushbu reglamentning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish, ushbu reglamentning yangi tahrirdagi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

4. Hududlarda Avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlari

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJning 2025 yil xizmat ko'rsatish uchun belgilangan narxlar

T/r	Xizmat turi	O'lchov birligi	Narxi, so'mda
1	Marshrutlarni o'lhash va masofalarni aniqlash	1 kilometr (buyurtmachi mashina ajratganida)	66 080
		1 kilometr	79 554
2	Avtoshina me'yorlarini ishlab chiqish	1 dona avtoshina	1 331 000
3	Yoqilg'i me'yorlarini ishlab chiqish	1 dona avtomashina	1 331 000
4	Raqamli nazorat qurilma kartochkasi	1 dona karta	1 500 000
5	Raqamli nazorat qurilma kartochkasi (pochta xizmati)	1dona karta	1 550 000
6	Refrijerator avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish	1 xizmat	4 460 000
7	Raqamli nazorat qurilmasini qiyoslash	1 xizmat	300 000
8	Raqamli nazorat qurilmasini o'rnatish	1 xizmat	1 000 000
9	Raqamli nazorat qurilmasini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	1 xizmat	150 000

*** 2025-yil uchun belgilangan narxlar "Transport vazirligi" bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Бухгалтерский баланс
"Transport ilmiy-tadqiqot markazi" МСН

2024 йил якуни ҳолатига

Кўрсаткичлар номи	Сатр коди	Ҳисобот даври бошига	Ҳисобот даври охирига
1	2	3	4
Актив			
I. Узок муддатли активлар			
Асосий воситалар:			
Бошланғич (қайта тиклаш) киймати (0100, 0300)	010	2 618 556,00	3 512 906,00
Эскириш суммаси (0200)	011	2 077 180,00	2 450 352,00
колдик (баланс) киймати (сатр. 010 - 011)	012	541 376,00	1 062 554,00
Номоддий активлар:			
Бошланғич киймати (0400)	020		
Амортизация суммаси (0500)	021		
колдик (баланс) киймати (сатр. 020 - 021)	022	0,00	0,00
Узок муддатли инвестициялар, жами (сатр.040+050+060+070+080)	030	6 801 521,00	6 801 521,00
Қимматли коғозлар (0610)	040		
Шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар (0620)	050	1 500,00	1 500,00
карам хўжалик жамиятларига инвестициялар (0630)	060		
Чет эл капитали мавжуд бўлган корхоналарга инвестициялар (0640)	070		
Бошқа узок муддатли инвестициялар (0690)	080	6 800 021,00	6 800 021,00
Ўрнатиладиган асбоб-ускуналар (0700)	090		
Капитал кўйилмалар (0800)	100		
Узок муддатли дебиторлик қарзлари (0910,0920,0930,0940)	110		
Долгосрочные отсроченные расходы (0950, 0960, 0990)	120		
I бўлим бўйича жами (сатр.012+022+030+090+100+110+120)	130	7 342 897,00	7 864 075,00
II. Жорий активлар			
Товар-моддий захиралари, жами (сатр.150+160+170+180)	140	243 428,00	603 783,00
Ишлаб чиқариш захиралари (1000, 1100, 1500, 1600)	150	83 183,00	214 361,00
Тугалланмаган ишлаб чиқариш (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Тайёр маҳсулот (2800)	170		
Товарлар (2900 дан 2980 нинг айирмаси)	180	160 245,00	389 422,00
Келгуси давр харажатлари (3100)	190		
Кечикирилган харажатлар (3200)	200		
Дебиторлар, жами (сатр. 220+240+250+260+270+280+290+300+310)	210	1 423 790,00	3 528 975,00
шундан: муддати ўтган*	211		
Харидор ва буюртмачиларнинг қарзи (4000 дан 4900 нинг айирмаси)	220	572 193,00	1 715 174,00
Ажратилган бўлинмаларнинг қарзи (4110)	230		
Шўъба ва қарам хўжалик жамиятларнинг қарзи (4120)	240		
Ходимларга берилган бўнаклар (4200)	250	19 794,00	98 808,00
Мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга берилган бўнаклар (4300)	260	69 061,00	82 205,00
Бюджетга солиқлар ва бошка мажбурий тўловлар бўйича бўнак тўловлари (4400)	270	86 002,00	542 584,00
Максадли давлат жамғармалари ва сугурталар бўйича бўнак тўловлари (4500)	280	65 448,00	2 563,00
Таъсисчиларнинг устав капиталига улушлар бўйича қарзи (4600)	290	145 909,00	147 048,00
Ходимларнинг бошка операциялар бўйича қарзи (4700)	300		-1 000,00
Бошқа дебиторлик қарзлари (4800)	310	465 383,00	941 593,00
Пул маблағлари, жами (сатр.330+340+350+360), шу жумладан:	320	2 766 720,00	1 183 252,00
Кассадаги пул маблағлари (5000)	330		
Ҳисоб-китоб счётидаги пул маблағлари (5100)	340	733 077,00	1 148 324,00
Чет эл валютасидаги пул маблағлари (5200)	350		
Бошқа пул маблағлари ва эквивалентлари (5500, 5600, 5700)	360	2 033 643,00	34 928,00
қисқа муддатли инвестициялар (5800)	370	42 000,00	21 522,00
Бошқа жорий активлар (5900)	380		
II бўлим бўйича жами (сатр. 140+190+200+210+320+370+380)	390	4 475 938,00	5 337 532,00

Баланс активи бўйича жами (сатр.130+390)	400	11 818 835,00	13 201 607,00
Пассив			
I. Ўз маблағлари манбалари			
Устав капитали (8300)	410	76 121,00	76 121,00
Қўшилган капитал (8400)	420		
Резерв капитали (8500)	430	719 382,00	719 382,00
Сотиб олинган хусусий акциялар (8600)	440		
Тақсимланмаган фойда (копланмаган зарар) (8700)	450	-10 848,00	1 378 878,00
Максадли тушумлар (8800)	460	7 167 465,00	7 039 383,00
Келгуси давр харажатлари ва тўловлари учун захиралар (8900)	470		
I бўлим бўйича жами (сатр.410+420+430-440+450+460+470)	480	7 952 120,00	9 213 764,00
II. Мажбуриятлар			
Узок муддатли мажбуриятлар, жами (сатр.500+520+530+540+550+560+570+580+590)	490	0,00	0,00
шу жумладан: узок муддатли кредиторлик карзлари (сатр.500+520+540+560+590)	491	0,00	0,00
Мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга узок муддатли карз (7000)	500		
Ажратилган бўлинмаларга узок муддатли карз (7110)	510		
Шўъба ва қарам хўжалик жамиятларга узок муддатли карз (7120)	520		
Узок муддатли кечикирилган даромадлар (7210, 7220, 7230)	530		
Солик ва бошқа мажбурий тўловлар бўйича узок муддатли кечикирилган мажбуриятлар (7240)	540		
Бошқа узок муддатли кечикирилган мажбуриятлар (7250, 7290)	550		
Харидорлар ва буюртмачилардан олинган бўнаклар (7300)	560		
Узок муддатли банк кредитлари (7810)	570		
Узок муддатли карзлар (7820, 7830, 7840)	580		
Бошқа узок муддатли кредиторлик карзлар (7900)	590		
Жорий мажбуриятлар, жами (сатр.610+630+640+650+660+670+680+690+700+710+ +720+730+740+750+760)	600	3 866 715,00	3 987 843,00
шу жумладан: жорий кредиторлик карзлари (сатр.610+630+650+670+680+690+ +700+710+720+760)	601	3 866 715,00	3 987 843,00
шундан: муддати ўтган жорий кредиторлик карзлари*	602		
Мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга қарз (6000)	610	170 742,00	652 945,00
Ажратилган бўлинмаларга қарз (6110)	620		
Шўъба ва қарам хўжалик жамиятларга қарз (6120)	630		
Кечикирилган даромадлар (6210, 6220, 6230)	640		
Солик ва бошқа мажбурий тўловлар бўйича кечикирилган мажбуриятлар (6240)	650		
Бошқа кечикирилган мажбуриятлар (6250, 6290)	660		
Олинган бўнаклар (6300)	670	2 910 127,00	2 263 325,00
Бюджетга тўловлар бўйича қарз (6400)	680	511 941,00	151 594,00
Суғурталар бўйича қарз (6510)	690		
Максадли давлат жамғармаларига тўловлар бўйича қарз (6520)	700	42 161,00	163 369,00
Таъсисчиларга бўлган карзлар (6600)	710		
Мехнатга ҳақ тўлаш бўйича қарз (6700)	720	178 361,00	191 327,00
Қисқа муддатли банк кредитлари (6810)	730		
Қисқа муддатли қарзлар (6820, 6830, 6840)	740		
Узок муддатли мажбуриятларнинг жорий қисми (6950)	750		
